



Baxtiyor KAMOLOV,
Namangan davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi, g.f.f.d (PhD)
E-mail: geograf-namdu@mail.ru
Zafarjon ABDURASHIDOV,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi, g.f.f.d (PhD).
E-mail: zaabdurashidov@gmail.com

O'zMU professori, g.f.d N.Q. Komilova taqrizi asosida

EDUCATION IN ECOTOURISM AS A FACTOR OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT

Abstract

The article talks about the content, nature and features of ecotourism education in the development stages of sustainable development and the issues of further improvement of the concept of ecotourism in the minds of mature young generations, popularization of ecotourism culture, meaningful duration of nature trips and rational use of natural resources were touched upon.

Keywords: Ecotourism education, sustainable development, ecotourism, culture, educational institutions, mature young generation, public consciousness, healthy lifestyle, nature, educational process.

ОБРАЗОВАНИЕ В ЭКОТУРИЗМЕ – КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

Аннотация

В статье говорится о содержании, сущности и особенностях экотуристического образования на этапах развития устойчивого развития и затронуты вопросы дальнейшего совершенствования понятия экотуризма в сознании подрастающего поколения, популяризации культуры экотуризма, осмысленной продолжительности выездов на природу и рационального использования природных ресурсов.

Ключевые слова: Экотуристическое образование, устойчивое развитие, экотуризм, культура, образовательные учреждения, зрелое молодое поколение, общественное сознание, здоровый образ жизни, природа, образовательный процесс.

EKOTURISTIK TA'LIM – BARQAROR TARAQQIYOTNING OMILI SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada barqaror taraqqiyotning rivojlanish bosqichlarida ekoturistik ta'lim mazmuni, mohiyati va hususiyatlar haqida so'z yuritilib, barkamol yosh avlodlar ongida ekoturizm tushunchasini yanada takomillashtirish, ekoturistik madaniyatni ommalashtirish, tabiat qo'yniga tashkil etiladigan sayohatlar davomiyligini mazmunli o'tkazish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalariga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Ekoturistik ta'lim, barqaror taraqqiyot, ekoturizm, ekologik madaniyat, ta'lim muassasalari, barkamol yosh avlod, ijtimoiy ong, sog'lom turmush tarzi, tabiat, o'quv jarayoni.

Kirish. Ekoturistik ta'limning muhimligi hozirgi zamonaviy dunyoda hech kimda shubha uyg'otmasligi bilan birgalikda ko'plab mamlakat-larda ta'lim va tarbiya berishning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Aholining ekologik madaniyatini va atrof muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni shakllantirishga qaratilgan ushbu faoliyat – butun insoniyat kelajagi xavfsizligining garovidir.

Shularni e'tiborga olgan holda, O'zbekistonda barqaror rivojlanish uchun ta'lim bo'yicha BMT Bosh Assambleyasining "2005-2014 yillarda Barqaror taraqqiyot ta'limi o'n yilligi to'g'risidagi" rezolyutsiyasi va BMT Yevropa Iqtisodiyot komissiyasining barqaror taraqqiyot ta'limi bo'yicha Strategiyasi doira-sida olib borilgan izchil ishlar va O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim va Xalq ta'limi vazirliklarining 2011 yil 19 iyulda "O'zbekiston Respublikasining barqaror taraqqiyot maqsadlari uchun ta'lim konsepsiyasi to'g'risida"gi 20/2/305-sonli qo'shma qarori qabul qilinganligi ana shunday sa'y-harakatlar samarasidir.

Barqaror taraqqiyot yo'lidagi ta'lim «barqaror taraqqiyot» tushunchasining mohiyatini aks ettiradi. Atrof muhit va taraqqiyot Xalqaro komissiyasining Ma'ruzasida bu tushuncha «bo'lajak avlodlar o'z ehtiyojlarini qondirishlari imkoniyatini xavf ostiga qo'yimagan holda hozirgi zamon ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan» taraqqiyot sifatida ta'riflanadi.

Shuningdek, «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni-ning 4-moddasida «...barcha turdagi ta'lim muas-salarida ekologiya o'quvining majburiyligi» qayd etilgan bo'lib, ekologik ta'limning bosh maqsadi aholining barcha qatlamlarida, jumladan, umumta'lim maktablari va kollej o'quvchilari hamda oliy ta'lim talabalarida atrof-muhitni asrash muammolariga ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir.

Zamonaviy olam shunday davrni boshidan o'tkazyaptiki, yoshlarda ekologik madaniyatni tarbiyalash ta'lim faoliyatining dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bolalarda ekologik bilimlar qanchalik kichik yoshdan shakllansa, bunday ta'lim shunchalik katta samara beradi. Shuning uchun ushbu jarayonni ilmiy tashkil qilish davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi zarur.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ekoturizmning ilmiy-nazariy masalalariga O'zbekiston va xorijiy mamlakatlardagi geograf va iqtisodchi olimlarning tadqiqotlari bag'ishlangan. Ekoturizm haqidagi manbalar ilk bor XX asrning oxiri XXI asrning boshlarida xorijlik olimlar R.Davidov, A.Drozdov, V. Xrabovchenko, T.Bochkaryova, L.I. Yegorenkov va A.Taksanovlarning asarlarida ko'rib chiqilgan [1].

Ekoturizmning birinchi va ancha to'g'ri tushunchasini G.S.Gujin, M.Y.Belikov va YE.V.Klimenko 1997-yilda bergan: "Ekoturizm asosida tabiatni muhofaza etish tashvishlari yotadi". Bunday sayohatda oldingi kam sonli sayohatchilar guruhini tabiatga chiqib, tabiiy resurslarni muhofaza etish bo'yicha har turli projeklarni amalga oshirish uchun qilgan ishlarini tushuniladi[2].

O'zbekistonda turizmni marketing, menejment va iqtisodiy masalalari bo'yicha O.X.Hamidov, N.Tuxliyev, T.Abdullayeva va M.R.Usmonovlar tomonidan ilmiy ishlar olib borilgan. Ekoturizmning ilmiy-nazariy asoslarini A.N.Nigmatov, N.T.Shamuratova va M.Xoshimovlar tomonidan o'rganilgan.

Biroq, hozirgacha ekoturistik ta'lim va madaniyatni targ'ib qiluvchi ilmiy tadqiqot ishlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, uslubiy ko'rsatma va xorijiy adabiyotlarda manbalar oz miqdorni tashkil etish bilan xarakterlanadi.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda barcha ijtimoiy ong darajalari va madaniyat shakllarining ekoturistik manfaatlar doirasida integratsiya-lashuvi jarayonlarining kuchayishi kuzatilmoqda. Bunday vaziyatda ekoturistik madaniyatni rivojlantirish jarayonida o'zaro bog'liq, lekin nisbatan mustaqil ikki yo'nalishni bir-biridan ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Birinchi – ekoturizmga oid nazariy bilimlar majmuasi asosida insoniyatning tabiatni o'zgartirish va o'zlashtirishdan iborat amaliy faoliyatni tashkil etuvchi ishlab chiqarish, texnika, texnologiya taraqqiyotini oqilona tashkil qilish.

Ikkinchi – tajribalar asosida ekoturistik ta'lim – tarbiya ijtimoiy institutlari yordamida kishilarda ekoturizm tushunchasi va ong, tafakkur hamda dunyoqarashini rivojlantirish demakdir. Bu yo'nalishlarni umum-insoniy ma'nfatlar negizida uyg'un taraqqiy ettirish, pirovard natijada faol ekologik madaniyatni shakllanishida va ularning tabiatni muhofaza qilish faoliyatida katta rol o'ynaydi.

Umuman, tabiat va jamiyat munosabatlarini ilmiy tushunish asosida ta'lim-tarbiya tizimida tegishli vosita va usullarni zamon talablari darajasida takomil-lashtirib, amaliyotda qo'llash, ekoturistik madaniyatni rivojlantirishning zaruriy shartidir. Buning uchun ta'lim-tarbiyaning barcha yo'nalishlarini, usullarini, vositalarini uyg'un rivojlantirish hamon dolzarbligicha qolmoqda.

Inson tabiat qudratini kuch bilan emas, balki muvozanatni buzmaganda muvofiqlash-tirishi kerak. Ekoturizm insonning tabiat bilan o'zaro ta'siri sohasidagi bilim va e'tiqodni mujassam etadi. Ekoturistik bilimlar odamlar o'zlarining hozirgi va kelgusidagi biosfera bilan qanchalik uzviy bog'langanini, tabiatni muhofaza etish, tabiat boylik-laridan oqilona foydalanish va har bir insonda atrof-muhit holati uchun mas'ullik hissinin tarbiyalash, hayvonot va nabotat olamini asrash obyektiv zarurat ekanini tushunib yetishlarining muhim sharti hisoblanadi.

Ekoturistik ta'lim-tarbiyaning muhim shakli o'quvchilarning o'z hududlaridagi ekoturistik obyektlarda obodonlashtirish, ko'chat-daraxtlar ekish va ularni o'z vaqtida parvarish qilish, qushlar va hayvonlar uchun uya va in qurish, buloq, ko'l va ariqlarni axlat va chiqindilardan tozalash, tuman hududiga yaqin joylashgan qishloq yoki shahar atrofidagi oromgohlarda obodonlashtirish ishlarini o'tkazish va boshqa amaliy ishlaridir. Bunday ishlar mustahkamlanishi bilan birga tabiat bilan bog'liq zaruriy ekologik, huquqiy, axloqiy va estetik qarashlar shakllanadi. O'quvchilar insonning tabiatdagi o'rmini, ona shahri yoki qishlog'i uchun tabiat muhofazasi borasidagi faoliyatining ahamiyatini, yer va havo, ko'l, daryolarni toza saqlash masalalarini hal etishda faol hayotiy nuqtai nazarining dolzarb ekanini tushunib yetadilar. Aynan yoshlarning tabiatni muhofaza etish borasida maqsadga yo'naltirilgan amaliy faoliyatini individual ekologik ongning shakllanishida zaruriy shart hisoblanadi. O'zbekistonda ekoturistik ta'lim va tarbiya masalalari "Bog'cha bolalari tarbiyasi dasturi"ga ham kiritilgan.

Hozirgi davrda inson va tabiat, fan-texnika taraqqiyoti va atrof-muhit, jamiyat va ekologiya o'rtasida nomutanosiblik vujudga kelayotir. Bularning barchasi ekologik madaniyatni yanada yuksaltirish masalasini ko'ndalang qo'ymoqda. Shuning uchun, yangi asrning barkamol kishisi o'zida ekologik madaniyat hislatlarini ham namoyon eta olishi zamon talabi-dir. Ekoturistik madaniyat – bu atrof-muhit to'g'risida chuqur bilimga, tabiatni asrash tuyg'usiga ega bo'lish, o'simliklar hamda hayvonlarga nisbatan g'amxo'rlik ko'rsatishga, tabiat zahiralardan oqilona foydalanish, ularni ko'paytirish borasida qayg'urishga qaratilgan amaliy faoliyatning yuksak ko'rsatkichidir. Ana shu xislatlarni o'zida aks ettira olgan insonni ekologik madaniyat egasi, deb atash mumkin.

Aholisi ekologik madaniyatli bo'lgan har qanday davlatning ertasi yorug', kelajagi buyuk bo'ladi. Chunki, toza ekologik muhitda unib o'sgan yoshlar har tamonlama kamolotga erishadi va yurt ravnaqi uchun xizmat qiladigan insonlar bo'lib yetishadi. Barchaga ma'lumki, yoshlar ongida ekologik yondashuvli dunyoqarashni ta'lim va tarbiya jarayonida shakllantirish bugunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Biz quyida yoshlarning ekologik madaniyatini shakllantirish uchun ta'lim va tarbiya jarayonida e'tibor berilishi kerak bo'lgan eng muhim sifatlarini aytib o'tmoqchimiz:

ekoturistik madaniyatni shakllantirishning milliy-madaniy, umuminsoniy, tarixiy asoslaridan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish;

tabiat qonunlariga ilmiy-amaliy jihatdan yondashish;

tabiatni asrashga doir ilg'or pedagogik texnologiyalar va axborot vositalaridan foydalanish;

ta'lim muassasalarida ekoturizm va sayohlik bo'yicha fan rivojini yo'lga qo'yish va to'garaklar tashkil etish;

bo'lajak pedagog o'qituvchilarning bilim saviyasini oshirish maqsadida maxsus kurslar tashkil etish;

ta'lim bosqichlaridagi pedagog-tarbiyachilar, o'qituvchilar, o'quvchi-talabalar yoshlarga ekoturizmga oid o'quv-metodik qo'llanmalar, ko'rgazma va didaktik materiallarni yaratish.

Aslida, tabiatni barcha go'zalliklari bilan his qilishdan, sevishdan boshlanadi. Insonning tabiat kuchlari – sovuq va issiq, qurg'oqchilik, yong'inlar, turli ofatlar ustidan g'alabasi unga bo'lgan munosabatini o'zgartiradi. Bu ko'r-ko'ronalikdan asta-sekin ongli munosabatga aylana boradi. Tabiatga bo'lgan mehr tuyg'usi boyib, unga munosabat shaxs madaniyatining ajralmas bir bo'lagini tashkil etadi [3].

Xulosa va takliflar. Milliy ma'naviyatimizning serqirra va teran ildizlariga tayangan holda mafkuraviy tarbiya yo'nalishlarini ishlab chiqishda ekologik mafkura, ta'lim va tarbiya tizimini yaratish alohida o'rin tutadi. Ekologik ongni, madaniyatni shakllantirishda nazariy ekologik bilimlarni berish bilan bir qatorda, madaniy-ma'rifiy ishlarining barcha samarali shakllari va uslublaridan, jumladan; ommaviy axborot vositalaridan, og'zaki, ko'rgazmali va texnika vositalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki ekologik targ'ibot aholining muayyan toifalari ongiga ta'sir etib qolmay, balki bog'cha yoshidagi boladan tortib, aholining barcha qatlamlarini qamrab olishi, hammaga tushunarli, ko'rgazmali va oshkora bo'lishi lozim. Tabiat, Yer, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiiy resurslar haqida xabarlar berish bilan yosh avlod ongida

tabiatga nisbatan e'zoz uyg'otib, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish borasida ekologik ta'lim-tarbiya beshigi rolini o'tashi lozim. Insoniyatni kun sayin o'sib borayotgan ehtiyojlari va sayyoramizda kamayib ketayotgan imkoniyatlari o'rtasidagi muvozanatni barqarorligini ta'minlash, tabiatni muhofaza qilish uchun har birimiz ekologik bilimlarga ega bo'lmog'imiz zarur.

Yurtimiz kelajagi hisoblangan o'sib kelayotgan yosh avlodning ekoturizm va ekomadaniyat bilan bog'liq ta'limiy va tarbiyaviy bilimlarini egalashi hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham mustaqil mamlakatimizning har bir fuqarosini tabiatni asrash ishiga faol jalb qilish, ekologik madaniyatni oshirishda jamoatchilik rolini kuchayti-rishni davrning o'zi talab etmoqda. Zero jamiyat bilan tabiatning, inson bilan atrof muhitning o'zaro uyg'unligi aholi o'rtasida tabiat bilan bog'liq bo'lgan sayohat turlarini tashkil etish va yanada yuksaltirish yuqoridagi fikr va mulohazalar dasturi amal bo'lib xizmat qilishi darkor.

ADABIYOTLAR

1. Kamolov B.X. Namangan viloyatida ekoturizmning hududiylik, davriylik, komplekslilik xususiyatlari. Geografiya fanlari falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. –Toshkent, 2018.
2. Храбовченко В.В. Экологический туризм. Москва, Финансы и статистика, 2003 г.с.-29.
3. Axmedova D., Solihova G'..Sog'lom avlod asoslari.T., "O'zbekiston", 2007. 30-6.
4. Abdurashidov Z.A. Farg'ona vodiysida muqobil energiya manbaridan foydalanishning geografik xususiyatlari (O'zbekiston Respublikasi misolida) Geografiya fanlari falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – Samarqand, 2022.